

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

MUNDARIJA

Alijon HAMROEV. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students.....	7
Matlab TILAVOVA. Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
G'ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA. Markaziy osiyolik allomalarning tabiat haqidagi asarlaridan boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanish	18
Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA. Ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar	20
Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA. Ko'paytirish va bo'lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA. Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo... ..	28
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda hayot sabog'ining o'ziga xos talqini.....	30
Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA. "Qiziqmachoq" atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari	33
Mohinur SAIDOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining masofaviy ta'limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari	38
Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish.....	42
Nodira ADIZOVA. Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO'LATOVA. Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi	49
Shoira BOBOYEVA. Metodikada ona tili ta'limini modellashtirishga innovatsion yondashuv	51
Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА. С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии	58
Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА. Влияние международного исследования girls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника	64
Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА. Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей	68
Mehriniso HAKIMOVA. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta'minlashga doir metodik ta'minot.....	72
Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА. "Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши" мавзусини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги	79
Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА. Преподавание биологии в школе	86
Shoira QURBONOVA. Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	89
Gavhar SAIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o'lchash malakalarini hosil qilish	92
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni	94
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari	97
Yulduz Pulatova. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons	101
Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA. Maktab o'quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlar	107
Adiba BAHRONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari	110
Saodat QODIROVA. Qadimiy maqollar	113
Dilshod DAVRONOV. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma	115
Yulduz NUROVA. Etnologiya va etnografiya munosabati	118
Malika XAYDAROVA. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari	122
Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarga figura yuzi tushunchasini o'rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

QADIMIY MAQOLLAR

Ushbu maqolada Gulxaniy ijodiga mansub bo'lgan "Zarbulmasal" asarining tarixi va o'tmishimiz ya'ni o'sha davrning muammolari masallar asosida ochib berilgan. Insonlar xarakteri hayvonlarga majoziy tarzda ko'chirilib, ular o'rtasidagi munosabat asosida o'sha davrning muhiti yaqqol ko'rinadi. Asarning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi, bosh syujet yo'li, tarkibi, tili, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lum tasavvur hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: asar, syujet, mazmun, fikr, xarakter, qahramon, moziy, dialog.

In this article the author tried to explain the history of the great written work "Zarbulmasal" by Gulxaniy and also gave facts about how Gulxaniy described and revealed the life problems of that period-the period of our past with the help of parables. The characters and manners of people were metaphorically transferred to animals and on the basis of the relationship between people the atmosphere of that time was obviously shown and revealed. The readers of this book can get certain information about the content of the written work, its ideological tendency, the way of the main plot, the composition, the language, the stylistic distinction of it and the work can give an unforgettable impression on people.

Key words: work (written work), plot (subject), content (meaning), idea, character (manner), hero, moral story, dialogue

В этой статье рассказывается об истории произведения Гульхани "Зарбулмасал" и проблемах нашего прошлого, то есть того времени, основанных на притчах. Нрав человека аллегорически переносится на животных, и, исходя из отношений между ними, и хорошо видна среда того времени. Формируется определенное представление о содержании, идеологическом направлении произведения, основном сюжете, композиции, языке, методологических особенностях.

Ключевые слова: произведение, сюжет, содержание, идея, характер, герой, история, диалог.

Kirish. Muhammad Sharif Gulxaniyning adabiy-tarixiy xizmatlari beqiyos. U o'zbek xalq maqollarining o'zi yashagan davrdagi holatini aniq qayd qiladi. Bu qaydlar yetuk folklorshunos olimning kuzatuv va qaydlaridan farq qilmaydi. Muhimi, adib har bir maqolning "yashash joyi" bilan birga ko'rsatadi: uning qo'llanish manzili, vaqti, maqsadi va vazifalarini ham ko'p hollarda ko'rsatib o'tadi. Agar Gulxaniyning Qo'qon adabiy muhitida kamol topgani, XVIII asrning so'nggi choragi va XIX asrning birinchi yarmida yashagani taxmin qilinsa, boshqa ma'lumotlarning nihoyatda ozligini e'trof etishga to'g'ri keladi.

Shunga qaramay, u o'zbek adabiyoti tarixida o'zidan sezilarli iz - jiddiy adabiy meros qoldirdi. Mana shu merosning o'zi uning adabiyot tarixi uchun benazir yodgorlik qoldirganini, bu yodgorlikning o'zbek nasri tarixi uchun, umumo'zbek adabiyotining tarixiy ravnaqi uchun ham muhim va benazir manba ekanini tasdiqlab turadi.

Asosiy qism. Gulxaniy o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan, ya'niki u har ikki tilni ham mukammal darajada bilgan. Uning mazkur bilimi maqollarni to'plash va ulardan foydalanish jarayonida ham o'zini ko'rsatib turadi.

Gulxaniy qo'llagan maqollarning ma'rifiy, adabiy, estetik ahamiyati juda katta. Imiy adabiyotlarda bu borada ancha jiddiy va salmoqli gaplar aytilgan [3, 96.]. Alohida ta'kidlash joizki, ularning ilmiy ahamiyati ham juda katta. Xususan, folklorshunoslik uchun ularning o'z davridagi holati va qo'llanish sohasi, ayrim maqollarning versiya va variantlari haqida ham boy tasavvurlar uyg'ota oladi. Ayni mana shu jihatlari ularning matnshunoslik va manbashunoslik uchun ham katta ahamiyat kasb etishiga olib kelgan. Mulohazalarimizni ayrim misollar yordamida izohlashga harakat qilamiz.

Kitobning boshlanishidayoq o'ziga xos maqollarga duch kelamiz:

1. "Oshuqg'on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas" [1, 10].
2. "Po'lat pichoq qinsiz qolmas" [1, 10].
3. "Bosh omon bo'lsa, bo'rk topilur" [1, 10].
4. "Ermon yog'ochining egilgani – singani,

Er yigitning uyalgani – o'lgani [1, 10].

Ushbu maqollar Gulxaniy yashagan zamonda ayni mana shu shakllarda qo'llangan. Ularn hozirga maqollarimiz bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ko'plab yangi xulosalarga ega bo'lamiz.

Tasavvurning aniqroq bo'lishi uchun ularni jadval tariqasida keltiramiz:

Gulxaniyda:	Hozirgi o'zbek tilida:
Oshuqg'on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas [1, 10].	Shoshgan qiz erga yolchimas.
Teshikmunchoq yerda qolmas.	
Po'lat pichoq qinsiz qolmas [1, 10].	Pichoq qinsiz qolmaydi.
Bosh omon bo'lsa, bo'rk topilur [1, 10].	Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.
Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini qo'ymas [1, 10].	Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini.
Ermon yog'ochining egilgani – singani, Er yigitning uyalgani – o'lgani [1, 10].	
Teng-tengi birla, tezak qopi birla [1, 11].	Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan.
Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'a bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur [1, 12].	Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'a bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur.
Eshagining fe'li egasiga ma'lum [1, 41].	Itning fe'li egasiga ma'lum.
Katta kema qaydin yursa, kichik kema andin yurur [1, 46].	Katta arava qaydan yursa, kichik arava shundan yuradi.

E'tbor berilsa, keltirilgan maqollar bilan ularning hozirgi ko'rinishlari o'rtasida yaqinliklar nihoyatda ko'p. Shunga qaramay, ularning orasida ayrim tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Bularni shunday umumlashtirish mumkin:

1. Ayrim maqollar hech qanday o'zgarishsiz qo'llanadi.
2. Maqollarning bir qismida fonetik o'zgarishlarga mavjud, xolos (“Teng-tengi birla, tezak qopi birla”). Ularning shakl va mazmunidagi bir xillik deyarli saqlangan.
3. Yana bir guruh maqollarda tegishli tafovutlar mavjud. Ularni shunday guruhlashtirish maqsadga muvofiq ko'rinadi:
 - 3.1. Ayrim maqollarda qo'llangan so'zlar almashtirilgan (Eshagining fe'li egasiga ma'lum). Bunda ko'proq so'zning semantik-uslubiy xususiyatlari e'tiborga olingan.
 - 3.2. Maqollarda ixchamlashish hodisasi mavjud (“Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini qo'ymas”).
 - 3.3. Ayrim maqollar ikki komponentli ko'rinishdan bir komponentli shaklga kelgan (“Oshuqg'on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas”). Ta'kidlash lozimki, unda ko'pincha ikki komponentli maqolning alohida-alohida qo'llanadigan ikkita maqolga ajralib ketish jarayoni kuzatiladi.
 - 3.4. Ayrim hollarda qo'shkomponentli maqollardan faqat bittasigina (Ko'r tutganini qo'ymas) keyinchalik faollikni saqlagani holda boshqa birining (Kar – eshitganini) umuman, passivlashuvi ham kuzatiladi.

Xulosa. Keltirilgan misollar va ular haqidagi mulohazalar Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida qo'llangan maqollarning tadqiq etilishi katta ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga molik ekanini ko'rsatadi. Ularni hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan mavjud maqollar bilan qiyosiy o'rganish esa bu borada yanada jiddiyroq xulosalarga omil bo'lishini tasdiqlaydi. Demak, folklorshunos olimlarimizning bu boradagi tadqiqotlari kengroq qamrov kasb etishi va muntazam davom etishi maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Adabiyotlar

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashrga tayyorlovchi Yoqubov H. –Toshkent, “Ma'naviyat”, 2009.
2. Gulxaniy “Zarbulmasal”ining izohli lug'ati. Tuzuvchi Fathiddin Ishoqov. Mas'ul muharrir A.Rustamov. – Toshkent: TDSHU, 1988.
3. Ishoqov F. Gulxaniy. – O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. IV tom. XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmi. – Toshkent: “Fan”, 1978.
4. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
5. Razzoqov H. va b. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1980-yil.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1990.
7. Abdullayev V.A. O'zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1964-yil.